

## IMOM BUXORIY VA IMOM TERMIZIY MEROSI

*Din ishlari bo‘yicha qo‘mita huzuridagi Diniy-ma‘rifiy  
sohada malaka oshirish va qayta tayyorlash instituti*

*Namangan mintaqaviy filiali katta o‘qituvchisi*

**Yusupov Kobil Hakimboyevich**

[iphone12x12@icloud.com](mailto:iphone12x12@icloud.com)

ORCID 0009 0004 0232 9421

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada hadis ilmining O‘rta Osiyoda yuksalish jarayoni Imom Buxoriy hamda Imom Termiziy merosi misolida ilmiy-ommabop yondashuvda yoritiladi. Maqsad – ularning hayoti va ijodini shunchaki biografik tasvirlash emas, balki hadisshunoslik metodlari, asarlarning tuzilishi, ilmiy tarmoq (ustoz-shogird, rivoyat maktablari), va keyingi asrlardagi ta‘sir doirasini izchil ko‘rsatishdir.*

**Kalit so‘zlar.** *Hadis ilmi, Movarounnahr ilmiy muhiti, isnod tizimi. roviylar tanqidi, matnshunoslik, rihla (ilmiy safar), hadis metodologiyasi, hadis tasnifi, “hasan” kategoriyasi, islomiy manbashunoslik, O‘rta Osiyo islom ilmlari.*

**Abstract.** *This article presents a scholarly and popular analysis of the development of Hadith studies in Central Asia through the scholarly legacy of Imam al-Bukhari and Imam al-Tirmidhi. The aim is not merely to describe their biographies, but to systematically examine their methodologies in Hadith studies, the structure of their works, the scholarly networks (teacher–student transmission chains and narrational schools), and their long-term influence on subsequent centuries.*

**Keywords:** *Hadith studies, scholarly environment of Transoxiana, isnad system, narrator criticism, textual analysis, rihla (scholarly journey), Hadith methodology, classification of Hadith, “hasan” category, Islamic source studies, Islamic sciences of Central Asia.*

**Аннотация.** *В данной статье рассматривается процесс развития науки хадисов в Центральной Азии на примере научного наследия Имама аль-Бухари и Имама ат-Тирмизи в научно-популярном формате. Цель работы заключается не только в биографическом описании их жизни и творчества, но и в системном анализе методов хадисоведения, структуры их произведений, научных сетей (цепочек учитель–ученик и школ передачи хадисов), а также их влияния на последующие века.*

**Ключевые слова:** *наука хадисов, научная среда Мавераннахра, система иснада, критика передатчиков, текстология, рихля (научное путешествие), методология хадисов, классификация хадисов, категория «хасан», исламское источниковедение, исламские науки Центральной Азии.*

## **KIRISH**

O‘rta Osiyo qadimdan ilm-fan va madaniyat chorrahasida joylashgan bo‘lib, islomiy ilmlar tizimida alohida mavqega ega bo‘lgan hadis ilmi ham aynan shu hududda yuksak bosqichga ko‘tarilgan. Hadis ilmi Qur‘onni anglash, diniy-huquqiy va axloqiy me‘yorlarni tizimlashtirish, tarixiy xotirani saqlash kabi ko‘p qatlamli vazifalarni bajargan ilmiy an‘ana sifatida shakllandi. O‘rta Osiyoda hadis ilmining rivojlanishi, bir tomondan, ilmiy muhitning kuchliligi, ikkinchi tomondan, keng geografiyadagi ilm markazlari bilan doimiy muloqot (rihla), uchinchi tomondan esa isnod tanqidi va matn tahlili kabi metodlarning takomillashuvi bilan bog‘liq.

Hadis ilmi dastlabki asrlarda musulmon dunyosining turli markazlarida parallel ravishda rivojlandi: rivoyatlarni yig‘ish, isnodlarni tekshirish, roviylar tarjimai holini o‘rganish, matnlar orasidagi farqlarni qiyoslash kabi yo‘nalishlar asta-sekin alohida ilmiy sohalarga aylandi. O‘rta Osiyo mintaqasida yashab o‘tgan alloalarimiz bu jarayonga erta qo‘shildilar. Movarounnahr va Xuroson shaharlari savdo yo‘llari orqali yirik madaniy aloqalar hududi bo‘lgani uchun, ilmiy safarlar va isnod tarmoqlari tez kengaydi. Ilmiy hayotning muhim unsuri bo‘lgan rihla – hadis eshitish va tekshirish maqsadida safar qilish – O‘rta Osiyolik muhaddislar uchun ham odatiy amaliyot edi. Bu safarlar nafaqat material yig‘ish, balki metod almashinuvi, rivoyat maktablari bilan tanishish, ixtilofli matnlarni muqoyasa qilish, mahalliy ilmiy muhitga yangi mezon va usullarni olib kirish vositasi bo‘ldi. Shu tariqa Buxoro, Samarqand, Termiz, Nasaf, Marv kabi markazlar hadis ilmi bo‘yicha yirik ilmiy “uzel”larga aylandi; bu yerlarda nafaqat rivoyat aytish, balki rivoyatni tanqidiy ko‘rib chiqish madaniyati ham shakllandi.

Hadis ilmi rivojida O‘rta Osiyoning o‘ziga xos jihatlaridan biri – ilmiy intizomning kuchli institutsionallashuvi: masjid-madrasalar atrofidagi dars halqalari, ustoz-shogird an‘anasi, yozma ko‘chirish va nusxa tarqatish amaliyoti, hamda roviylar haqidagi ma‘lumotlarni to‘plashga bo‘lgan yuqori talabdir. Bu muhitda muhaddis nafaqat “yig‘uvchi”, balki tanqidchi, tartib beruvchi va izohchi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Islom hadis ilmi tarixida Imom Buxoriy va Imom Termiziyning ilmiy merosi alohida o‘rin tutadi. Ularning asarlarida hadislarni tanlash va tizimlashtirish jarayoni yuqori darajadagi ilmiy metodologiyaga asoslangan bo‘lib, rivoyatlarning saralanishi, boblar sarlavhalari orqali mazmuniy yo‘naltirish, shuningdek, roviylar ishonchliligini chuqur tahlil qilish kabi usullar yaqqol namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, turli isnod yo‘llarini bir matn doirasida jamlash orqali hadis matnshunosligining ilmiy asoslari yanada mustahkamlangan.

Zamonaviy hadisshunoslik tadqiqotlarida Imom Buxoriyning “Sahih” asari hamda Imom Termiziyning “Jomi” asari hadis kanonining shakllanishi va standartlashuvida markaziy manbalar sifatida e‘tirof etiladi. Ushbu asarlar nafaqat rivoyatlarni jamlash, balki ularni ilmiy mezonlar asosida baholash va tizimlashtirish orqali hadis ilmining metodologik

10-May, 2026-yil

asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etgan ayniqsa ularning tanlash mezonlari va mualliflik tahriri darajasi yuqori bo‘lgani qayd etiladi.<sup>1</sup>

Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy metodologiyasi haqida o‘zbek islomshunos olimlari ta’kidlashicha, uning “Sahih” asarida hadislar eng qat’iy ilmiy mezonlar asosida saralangan bo‘lib, roviylar ishonchliligi, isnod uzluksizligi va matn muvofiqligi asosiy baholash kriteriyalari sifatida qo‘llanilgan.<sup>2</sup> Uning ilmiy shakllanishida erta yoshdan kuchli xotira, tizimli ta’lim, hamda keng safarlar muhim rol o‘ynagan. Buxoriyning ilmiy tarjimai holi odatda ustozlar doirasi, safar geografiyasi va asarlarining ilmiy ta’siri orqali o‘rganiladi. U Buxoro va mintaqa muhiti bilan cheklanib qolmay, hadis ilmi markazlariga – Hijoz, Iroq, Shom va boshqa hududlarga borib, turli isnod yo‘llarini eshitgan. Bu holat “Sahih al-Buxoriy”dagi rivoyatlar tarmog‘ining kengligi va hilma-xilligida ko‘rinadi. Muallif faqat ko‘p rivoyat keltirishni emas, balki eng ishonchli isnodlar va matn variantlarini ajratib olishni maqsad qilgan. Buxoriyning metodologiyasida roviylarning adolati va zabti (ishonchliligi va yodda saqlash qobiliyati), isnodning uzluksizligi, hamda matnning boshqa kuchli rivoyatlar bilan mosligi kabi mezonlar muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, “Sahih”ning bob tuzilishi va bob sarlavhalari (“tarojim”) muallifning fiqhiy-analitik fikrlashini ko‘rsatadi. Ayrim hollarda Buxoriy bob sarlavhasi orqali xulosa beradi, rivoyatlar esa dalillash funksiyasini bajaradi. Shuningdek, o‘zbek hadisshunoslik an’anasida Imom Buxoriy faqat rivoyat to‘plovchi emas, balki hadislarini tizimlashtiruvchi va fiqhiy xulosalar chiqaruvchi ilmiy muhaddis sifatida talqin qilinadi.<sup>3</sup>

“Sahih al-Buxoriy”ning ilmiy-texnik xususiyatlari. Buxoriyning asosiy asari “Al-jomi’ as-sahih” hadis kitoblari ichida eng yuqori maqomga ega bo‘lgan to‘plamlardan biri sifatida qaraladi. Asarning tuzilishi boblar va kitoblar tizimiga asoslanib, unda hadislar mavzular bo‘yicha joylashtiriladi; shu bilan birga, bir hadis turli boblarda turli maqsadda keltirilishi mumkin. Bu – muallifning matndan turli dalillash nuqtalarini chiqarish strategiyasidir. Buxoriy ko‘pincha bir masalaga oid bir nechta isnod yo‘lini jamlaydi, ayrim joylarda “mu’allaq” shaklda qisqartirib beradi, ba’zan esa rivoyatning to‘liq matnini boshqa bobda keltirib, bu yerda ishora bilan cheklanadi. Zamonaviy tadqiqotlarda bu uslub “mualliflik kompozitsiyasi” sifatida tahlil qilinadi, ya’ni asar faqat rivoyatlar ombori emas, balki muallifning ilmiy konsepsiyasi bilan qayta ishlangan matn majmuasidir. Jonathan Brown Buxoriyning tanlash mezonlari hamda “Sahih”ning keyingi asrlarda sharhlar orqali qanday “ilmiy ekotizim”ga aylanganini alohida ta’kidlaydi.<sup>4</sup>

Buxoriy merosining kuchi shundaki, u hadis matnlarini to‘plash bilan birga, ularni o‘qish va tushunish madaniyatini ham shakllantirdi. Bob sarlavhasi, rivoyatlar tartibi, isnod

---

<sup>1</sup> Brown, *Hadith: Muhammad’s Legacy in the Medieval and Modern World*, Oxford, Oneworld, 2017, p. 85-92

<sup>2</sup> Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. **Hadis va hayot** (1-14-jildlar). – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1990-2005.

<sup>3</sup> *Islomshunoslikka oid ilmiy-uslubiy qo‘llanma: Hadis ilmi asoslari*. – Toshkent: O‘zbekiston musulmonlari idorasi nashriyoti, 2010.

<sup>4</sup> Brown, *Misquoting Muhammad: The Challenge and Choices of Interpreting the Prophet’s Legacy*, London, Oneworld, 2014, p. 126-133

10-May, 2026-yil

variantlari – barchasi o‘quvchini tahliliy mushohadaga chorlaydi. Imom Buxoriy O‘rta Osiyolik bo‘lgani sababli, uning merosi mintaqa ilmiy o‘zligini shakllantirishda ramziy va amaliy ahamiyatga ega bo‘ldi. Keyingi asrlarda Movarounnahrda hadis va fiqh ilmlarining bir-biri bilan uyg‘un taraqqiy etishi, ko‘p jihatdan, Buxoriy asarining o‘qitilish modeli, isnod madaniyati va sharhlar an‘anasiga tayanadi. “Sahih”ning qo‘lyozma nusxalari, rivoyat yo‘llari, qiroat majlislari va ijozalar tizimi orqali asar mintaqada doimiy ilmiy aylanishda bo‘lgan. Bu jarayon Buxoro va Samarqanddagi ilmiy muhitning o‘zini ham mustahkamlagan. Hadis darslari faqat matn yodlash emas, isnodlar, roviylar, rivoyatlar farqi va boblarning maqsadi ustida bahs yuritish maydoniga aylangan. Shu tariqa Buxoriy merosi O‘rta Osiyoda hadis ilmining “sifat standarti”ni belgilovchi mezon sifatida ishlagan.

**Imom Termiziy hayoti va ilmiy qiyofasi.** Imom Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (824–892) Termiz atrofida tug‘ilib, hadis ilmi tarixida “Jomi’ at-Termiziy” muallifi sifatida alohida o‘rin egallaydi. Uning ilmiy qiyofasi ko‘p qirrali. U muhaddis, tasnifchi, roviylar haqidagi baholashlarni jamlovchi va rivoyatlarning darajasi haqida izoh beruvchi olim sifatida ko‘rinadi. Imom Termiziy hadis ilmi tarixida nafaqat rivoyatlarni to‘plagan muhaddis, balki ularni baholashning ilmiy tilini shakllantirgan olim sifatida ham e’tirof etiladi. O‘zbek islomshunos olimlari ta’kidlashicha, Termiziyning “Jomi’” asari hadislarni tasniflash va baholashda yangi yondashuvni joriy etib, “hasan” kategoriyasining ilmiy muomalada keng qo‘llanishiga asos bo‘lgan.<sup>5</sup> Shuningdek, Imom Termiziy metodologiyasiga doir tadqiqotlarda uning rivoyatlarni berish bilan birga, isnod holati, roviylarning maqomi hamda fuqaholar ixtilofi haqida qisqa, ammo mazmunli sharhlar keltirgani alohida qayd etiladi. Bu jihat uning asarini oddiy hadis to‘plamidan ko‘ra “izohli ilmiy majmua” sifatida ajratib turadi.<sup>6</sup> O‘quvchi faqat hadis matnini emas, balki hadisning ilmiy “statusi” haqida muallifning dastlabki yo‘riqnomasini ham oladi. Rus tilidagi akademik adabiyotlarda Termiziyning ushbu uslubi hadis kanonining ichki ierarxiyasini tushunishda muhim omil ekani qayd etiladi.<sup>7</sup>

**“Jomi’ at-Termiziy”ning o‘ziga xosligi va ilmiy qiymati.** “Jomi’ at-Termiziy” ko‘pincha “Sunan” va “Jomi’” janrlarining kesishgan nuqtasida turadi. Unda aqida, ibodat, muomala, odob-axloq, tafsir, manoqib kabi mavzular qamrab olinadi. Asarning ilmiy qiymati shundaki, Termiziy ko‘p hollarda hadisning qabul qilinish darajasiga doir baho beradi, ayrim rivoyatlarni “hasan”, “sahih”, yoki boshqa ifodalar bilan tavsiflaydi, shuningdek, u yoki bu masalada ahli ilmning qarashlarini qisqa tarzda eslatadi. Bu hol Termiziyning kitobini fiqh va hadis oralig‘ida ko‘prik vazifasini bajaruvchi qo‘llanma sifatida ko‘rsatadi. Zamonaviy ingliz tilidagi tadqiqotlarda Termiziy to‘plamining foydali tomoni – unda rivoyatlarning ilmiy qabul qilinish tarixiga oid “signal”lar borligi, ya’ni

---

<sup>5</sup> Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. **Hadis va hayot** (1-14-jildlar). – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1990–2005.

<sup>6</sup> Usmonov A. **Hadis ilmi va uning manbalari**. – Toshkent: O‘zbekiston musulmonlari idorasi nashriyoti, 2012.

<sup>7</sup> (Ибрагим, М.М., Хадисоведение: история и методология, Москва, Издательство МГУ, 2018, с. 214–220).

10-May, 2026-yil

muallif hadisning mavqei haqida o‘quvchini xabardor qilishi ta’kidlanadi.<sup>8</sup> Demak, Termiziy merosi faqat hadislarni yetkazish emas, balki ularni ilmiy muomalaga kiritish mexanizmini ham ko‘rsatadi.

**Buxoriy va Termiziy merosining qiyosiy tahlili.** Imom Buxoriy va Imom Termiziy merosini qiyoslash, O‘rta Osiyoda hadis ilmi rivojining ikki muhim modelini ko‘rsatadi. Buxoriyda asosiy urg‘u eng ishonchli rivoyatlarni qat’iy mezonlar bilan saralash, ularni boblar orqali konseptual tartibga solish va qisqa, lekin chuqur fiqhiy ishoralar bilan yo‘naltirishga qaratilgan. Termiziyda esa kengroq qamrov, rivoyatlarni mavzular bo‘yicha jamlash bilan birga, hadisning darajasiga doir muallif izohlari va ahli ilm qarashlarini qayd etish kuchliroq. Buxoriy “tanlash va kompozitsiya” orqali ilmiy me‘yor yaratgan bo‘lsa, Termiziy “baholash tili va izoh” orqali o‘qish madaniyatini yengillashtirgan deyish mumkin. Ikkalasi ham isnod tizimiga suyangan, roviylar tanqidini qadrlagan va rivoyatlarni ijtimoiy-ilmiy muhitda tekshirish an‘anasini mustahkamlagan. O‘rta Osiyo hadis maktabi ana shu ikki yo‘nalish – yuqori saralash standartlari va izohli taqdim etish uslubining uyg‘unlashuvi bilan yirik ilmiy meros yaratdi.

O‘rta Osiyoda hadis ilmining rivojlanishini Buxoriy va Termiziy shaxsiyati orqali tushuntirganda, ularni o‘rab turgan ilmiy tarmoqni ko‘rish muhim. Ustozlar, shogirdlar, safar yo‘llari, kitob nusxalari, eshitish majlislari va ijozalar. Isnod – rivoyatning “pasporti” bo‘lib, u faqat diniy hurmat belgisi emas, balki akademik tekshiruv instrumenti sifatida ishlagan, kimdan eshitildi, qachon, qaysi majlisda, rivoyatning variantlari bormi, boshqa yo‘llar bilan tekshirildimi va hokazo. Shuning uchun ham muhaddislar tarjimai holi, roviylar haqida ma’lumot beruvchi asarlar (rijol) hadis ilmining ajralmas qismi bo‘lib qoldi. O‘rta Osiyo muhiti bu borada ham faol bo‘lgan. Rivoyat madaniyati bilan birga yozma madaniyatning kuchayishi, kutubxonalar, qo‘lyozma ko‘chirish, matnni muqoyasa qilish amaliyoti hadisshunoslikni barqaror ilmiy yo‘lga qo‘ydi. Bu jarayonni o‘rgangan rus tilidagi manbalarda Markaziy Osiyo ilmiy markazlarining transregional aloqalari, xususan, Xuroson–Movarounnahr–Iroq yo‘nalishidagi ilmiy qatnovlar hadis to‘plamlarining sifatini oshirgani qayd etiladi.<sup>9</sup>

Hozirgi akademik muhitda Imom Buxoriy va Imom Termiziy merosini o‘rganish bir necha yo‘nalishda davom etmoqda: matnshunoslik (qo‘lyozma variantlari va tahrir tarixi), isnod tarmoqlarini raqamli tahlil qilish, rivoyatlarning ijtimoiy tarqalishi, sharhlar an‘anasi, hamda hadis to‘plamlarining janr xususiyatlari. Xususan, G‘arb tadqiqotlarida hadis korpusining shakllanishi, kanonlashuv jarayoni, va mualliflik aralashuvi masalalari ko‘proq metodologik nuqtayi nazardan ko‘rib chiqiladi. Bu yondashuv Buxoriy va Termiziy asarlarini “tarixiy matn” sifatida o‘qish imkonini kengaytiradi. O‘zbekistonda esa so‘nggi yillarda Buxoriy va Termiziy merosini kataloglashtirish, qo‘lyozmalarni tavsiflash, ilmiy

<sup>8</sup> Lucas, Scott C., *Constructive Critics, Hadith Literature, and the Articulation of Sunni Islam*, Leiden, Brill, 2004, p. 167–173.

<sup>9</sup> (Мирзоев, А.Р., *Культурно-научные связи Мавераннахра и Хорасана в IX–X вв.*, Санкт-Петербург, Наука, 2019, с. 98–104).

tarjimalar va ommabop tadqiqotlar orqali keng auditoriyaga yetkazish yo‘nalishi kuchaydi. Bu jarayonda akademik standartlar – manba ko‘rsatish, matn variantlarini solishtirish, tarixiy kontekstni tiklash muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tilidagi zamonaviy tadqiqotlar, masalan, Buxoriy merosining ilmiy-ma‘rifiy ahamiyati, mintaqa ilmiy muhitidagi o‘rni va asarlarining o‘qitilish an‘analari haqida tizimli ma‘lumot beradi.<sup>10</sup>

**Imom Buxoriy va Imom Termiziy merosining O‘rta Osiyo madaniy xotirasidagi o‘rni.** O‘rta Osiyoda Buxoriy va Termiziy nomi nafaqat hadis ilmi bilan, balki ilmiy mehnatsevarlik, safar orqali bilim yig‘ish, ustoz-shogird an‘anasiga sadoqat, matni mas‘uliyat bilan ko‘chirish va tekshirish kabi qadriyatlar bilan ham bog‘lanadi. Ularning merosi mintaqa tarixiy xotirasida “ilmiy brend”ga aylangan. Buxoro va Termiz kabi shaharlarda shakllangan ilmiy an‘ana keyingi asrlarda ham o‘zini takror ishlab, turli yo‘nalishlarda davom etdi. Bunda eng muhim jihat merosni faqat muqaddas yodgorlik sifatida emas, balki ilmiy metod va madaniyat sifatida qabul qilishdir. Buxoriy va Termiziy asarlarini o‘qish, ulardagi tartib, mezon va izohlarni tahlil qilish tadqiqotchiga IX asr ilmiy tafakkurining ichki mexanizmlarini ko‘rsatadi. Shu sababli ham ularning merosi bugun ham tarix, manbashunoslik va matnshunoslik uchun qimmatli laboratoriya vazifasini bajaradi.

**Xulosa.** Hadis ilmining O‘rta Osiyoda rivojlanishi mintaqaning ilmiy salohiyati, transregional aloqalari, rihla madaniyati va yozma an‘ananing kuchayishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, Imom Buxoriy va Imom Termiziy merosida o‘zining eng yuksak ifodasini topdi. Imom Buxoriy “Sahih” orqali qat‘iy saralash mezonlari, kompozitsion tartib va tahliliy bob sarlavhalari bilan hadis to‘plamiga yuqori ilmiy standart olib kirdi. Imom Termiziy esa “Jomi” orqali hadislarini mavzular bo‘yicha keng qamrab olish, rivoyat darajalari haqida izoh berish va ahli ilm qarashlarini qayd etish orqali o‘quvchi uchun tahliliy yo‘riqnomalar yaratdi. Ikkala meros ham O‘rta Osiyoda hadisshunoslikning institutsionallashuvi, isnod madaniyatining mustahkamlanishi va ilmiy muhitning barqarorligini ta‘minlagan. Bugungi zamonaviy tadqiqotlar ularning asarlarini nafaqat tarixiy yodgorlik, balki metodologik manba sifatida o‘rganib, matnshunoslik va ilm tarixi nuqtayi nazaridan yangi ufqlarni ochmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Brown, Hadith: Muhammad’s Legacy in the Medieval and Modern World, Oxford, Oneworld, 2017, p. 85–92
2. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. **Hadis va hayot** (1–14-jildlar). – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1990–2005.
3. Islomshunoslikka oid ilmiy-uslubiy qo‘llanma: **Hadis ilmi asoslari**. – Toshkent: O‘zbekiston musulmonlari idorasi nashriyoti, 2010.
4. Brown, Misquoting Muhammad: The Challenge and Choices of Interpreting the Prophet’s Legacy, London, Oneworld, 2014, p. 126–133

<sup>10</sup> (Xolmirzayev, D., Imom al-Buxoriy va hadis ilmi tarixi, Toshkent, O‘zbekiston, 2020, 55–63-betlar).